

KIRISH.

XX asring ikkinchi yarmi insoniyat tarixida o'ziga xos alohida davrni tashkil qiladi. Bu davrda yer yuzasida aholi sonining tez sur'atlar bilan ortib borishi, sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanishi, insonning kuchli texnika vositalaridan mehnat quroli sifatida foydalanishi va fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanishi - insonning tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojini orttirdi. U tabiiy resurslardan faol foydalana boshladi va yerga, tuproqqa, suvga, havoga, o'simlikka va hayvonot dunyosiga kuchli ta'sir ko'rsata boshladi. Natijada, inson tabiiy resurslarning tez sur'atlar bilan kamayib ketishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiat komponentlari orasidagi mutanosiblikning buzilishiga, qolaversa, o'zining salomatligiga va hayoti uchun xavfli bo'lgan salbiy oqibatlarining yuzaga chiqishiga ham sababchi bo'lib qolmoqda. Bularning hammasi turli xil va murakkab tabiiy, sotsial- iqtisodiy va ekologik muammolarni, shu jumladan, inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir va aloqadorliklar bilan bog'liq bo'lgan muammoni keskinlashtirib yubordi. Bu muammo serqirra, murakkab va har doim dolzarb muammodir. Uning ijobiy yechimi ko'pchilik olimlarni ham, jamoatchilikni ham qiziqitirmay qolmaydi. Bu muammoning turli jabhalari bilan bir qator tabiiy, ijtimoiy va texnika fanlari o'z tadqiqot predmeti doirasida shug'ullanishi mumkin. Ammo ulaming birortasi bu muammoni to'laligicha qamrab ololmaydi. U fanlararo muammodir. Unga taalluqli ayrim masalalarni o'rganish, ulaming yechimini ilmiy asoslab berishda geobotanika, biogeosenologiya, tuproqshunoslik, ekologiya kabi fanlar muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bu borada tabiiy geografiyaning va ayniqsa, landshaftshunoslikning o'rni va ahamiyati o'ziga xosdir. Chunki tabiiy geografiya va uning bir qismi bo'lgan landshaftshunoslik inson yashaydigan va o'z xo'jalikdagi faoliyatini olib boradigan hududlarning tabiiy sharoitini, tabiiy komponentlari orasidagi o'zaro aloqadorliklarni, o'zaro ta'sirlarni, shu jumladan, inson faoliyatining ta'sirini ham o'rganadigan fandır. Shuning uchun ham tabiat bilan jamiyat o'rtasida ro'y